

O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

ZAMONAVIY DUNYO TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI

Sarvinoz Sharipova

SamDCHTI Ingliz tili o'qituvchisi

shsara232323@gmail.com

Nematova Mohinur Alisherovna

SamDCHTI Ingliz tili fakulteti talabasi

nematovamohinur240@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy dunyoda va ta'lim tizimida chet tillarini o'rganishning dolzarbligi va ahamiyati yoritiladi. Globallashuv jarayonida xalqaro hamkorlik, ilm-fan va texnologiyalar rivoji chet tillarini bilishni muhim kompetensiyasiga aylantirmoqda. Maqolada chet tillarini o'rganishning shaxsiy rivojlanish, kasbiy muvaffaqiyat va madaniyatlararo muloqotdagi o'zni tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion metodlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali til o'rganish samaradorligini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim, chet tillari, globallashuv, xalqaro hamkorlik, raqobatbardoshlik.

Bugungi globallashuv davrida zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – raqobatbardosh, keng dunyoqarashga ega va erkin muloqot qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashdir. Bunday sharoitda chet tillarini bilish, nafaqat qo'shimcha ko'nikma, balki, zamonaviy kompetensiyaning ajralmas qismiga aylanmoqda. Xalqaro hamkorlikning kengayishi, ilm-fan va texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi, axborot oqimining kuchayishi ta'lim jarayonida chet tillarining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Hech birimizga sir emaski, hozirgi kungi ta'lim tizimi “zamonaviy” tizim hisoblanadi. XXasrda ingliz tilining tarixi AQShning superdavlat sifatida yuksalishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, chunki u o'zining iqtisodiy, texnologik va madaniy ta'siri bilan birga ingliz tilini ham butun dunyoga yoygan [1].

“Ingliz tili global til sifatida” – so'nggi yillarda bunday sarlavha minglab gazeta va jurnallarda uchragan bo'lishi, shubhasiz. **“English rules”** (Ingliz tili hukmron) iborasi bunga aniq misol bo'lib, u tilning butun dunyo bo'ylab tarqalishining universalligini va bu jarayon davom etishi ehtimolini soddalar tarzda tasvirlaydi. “Gonkongning topshirilishi bilan Britaniya imperiyasi butunlay chekinayotgandek tuyulishi mumkin. Ammo Bengaldan Belizegacha, Las- Vegasdan Lahorgacha bo'lgan hududlarda toj kiygan orolning (ya'ni Buyuk Britaniyaning) tili tez sur'atlar bilan birinchi global linguafranca, xalqaro umumiy aloqa tiliga aylanmoqda” [1.1].



Til bilishlik insonni har tarafdan mukammal qiladi, chunki bir til o'rganish ortidan o'sha tilda so'zlashadigan xalqlarning madaniyati, urf-odatini ham o'rganamiz. Chet tilini o'rganish mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, boshqa madaniyatlarni tushunishga yordam beradi va tolerantlikni oshiradi. Hozirgi XXI asrda bir qator yirik gazeta va jurnallar ingliz tilini globallashuv, xilma-xillik, taraqqiyot va o'zlik kabi mavzularni yoritish uchun o'z maxsus sonlarida ramziy timsol sifatida tanladilar. Buning asosiy sababi boshqa chet tillariga qaraganda ingliz tilida so'zlovchilar sonining kengayishi va unga berilayotgan e'tibordir, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori buning yaqqol namunasidir. Albatta, ingliz tili-global til, uni butun dunyo siyosatchilari televideniya orqali so'zlayotganini eshitasiz. Qayerga bormang, ingliz tilidagi belgilar va reklamalarga ko'zingiz tushadi. Chet el shahridagi mehmonxona yoki restoranga kirsangiz, ular ingliz tilini tushunadi va hatokki menyu ham ingliz tilida bo'ladi. Ko'plab zamonaviy ta'lim platformalari va dasturlar ingliz tilida ishlaydi. Ingliz tilini bilish raqamli savodxonlikni ham oshiradi.

Agar ta'lim tizimida ingliz tiliga ahamiyat bersak, ikkinchi tilni o'qitishda CL, ko'pincha *kooperativ til o'rganish* – *CLL* deb ataladi. Bu sinfda kommunikativ o'zaro muloqotni rivojlantirish usuli sifatida qabul qilingan va u *kommunikativ til o'qitish* tamoyillarining davomi sifatida qaraladi. Bu yondashuv o'qituvchi markazidagi an'anaviy usullarga nisbatan ustunliklarga ega bo'lgan, o'quvchi markazli ta'lim usuli sifatida baholanadi [2,193]. Ingliz tilini o'qitish jarayonida uning bir qancha maqsadlari bor va quyida shular bilan tanishamiz:

- Interaktiv juftlik va guruh faoliyati orqali ikkinchi tilni tabiiy sharoitga yaqin tarzda o'zlashtirish imkoniyatlarini yaratish;
- O'qituvchilarga ushbu maqsadga erishish imkonini beradigan hamda turli o'quv dasturlari sharoitida (masalan, mazmun asosidagi ta'lim, chet tili sinflari, integratsiyalashgan ta'lim) qo'llash mumkin bo'lgan metodologiyani taqdim etish;
- Interaktiv vazifalar orqali ma'lum leksik birliklar, til tuzilmalari va kommunikativ funksiyalarga e'tiborni jamlash imkonini yaratish;

Ingliz tilini o'rganayotganlar uchun bu til ikkinchi til hisoblanadi va bu nuqtai nazaridan, McGroarty CLL sinflarida ESL (ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotgan) talabalar uchun oltita o'quv afzalligini ko'rsatadi:

1. Turli xil o'zaro muloqot turlari orqali ikkinchi tilda mashq qilishning chastotasi va xilma-xilligining oshishi.



2. Tilni kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydigan va til ko'nikmalarini kuchaytiradigan usullarda rivojlantirish yoki qo'llash imkoniyati.

3. Tilni mazmun asosidagi ta'lim bilan integratsiya qilish imkoniyatlari.

4. Til va tushuncha o'rganishni rag'batlantirish uchun o'quv dasturi materiallarining yanada kengroq turlaridan foydalanish imkoniyati.

5. O'qituvchilarga, ayniqsa kommunikatsiyani ta'kidlaydigan yangi kasbiy ko'nikmalarni egallash erkinligi.

6. Talabalarga bir-biri uchun resurs vazifasini bajarish imkoniyati, shu orqali o'z o'qish jarayonida yanada faolroq rolni egallash [3,195].

Ko'rib turganimizdek, ingliz tilini bilishlik bizga ko'plab eshiklarni ochadi, xalqimiz bejizga "Til bilmoq – el bilmoq" deb aytishmagan, chunki boshqa davlatga borgandan keyin, albatta, o'sha joyning aholisi bilan muloqot qilishga to'g'ri keladi. Mana shunday vaziyatda, agar biz tilni bilsak, bimalol, suhbatlasha olamiz. Bundan tashqari, ta'limda ingliz tilining o'rni alohidadir. Dunyo ilmiy maqolalari, darsliklar va onlayn kurslarning katta qismi ingliz tilida yaratiladi, ingliz tilini bilish talabalarga xalqaro manbalardan bevosita foydalanish imkonini beradi. Qo'shimcha qilib aytganda, ingliz tili xalqaro konferensiyalar, grant dasturlari va almashinuv lohiyalarida asosiy aloqa vositasidir. Til bilish chet elda ta'lim olish va tajriba almashish imkoniyatini kengaytiradi.

Biz ingliz tilining ikki tarqalishi, ya'ni ikki diasporasi haqida gapirishimiz mumkin. Birinchi diaspora dastlab Angliyaning janubi va sharqidan taxminan 25 000 kishining, asosan, Shimoliy Amerika va Avstraliyaga ko'chib o'tishini o'z ichiga olgan bo'lib, natijada ingliz tilining yangi ona tili variantlari shakllangan.

Ikkinchi diaspora esa Osiyo va Afrikaning mustamlaka qilinishi bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida ingliz tilining bir qator ikkinchi til variantlari rivojlangan. Ular ko'pincha "*Yangi ingliz tillari*" deb ataladi [4,23].

"Ingliz tili omili" deyarli barcha muhim global (makro) tendensiyalarda uchraydi: masalan, biznes jarayonlarini tashqi manbalarga topshirish (BPO), butun dunyoda shahar o'rta sinfining o'sishi, internet kabi yangi aloqa texnologiyalarining rivojlanishi, qashshoqlikning global qayta taqsimlanishi, yangiliklar ommaviy axborot vositalarining o'zgarib borayotgan tabiati va nazorati, shuningdek universitetlar va maktablarda ta'lim tizimining isloh qilinishi [5,58]. Ko'plab insonlar mehnat bozorida yaxshi va yuqori maosh to'laydigan ishda ishlashni xohlashadi va bu, albatta, tilga borib taqaladi. Ya'ni kasbiy raqobatbardoshlik- global mehnat bozorida ingliz tilini bilish ko'plab sohalarida ustunlik beradi. Xalqaro kompaniyalar va tashkilotlarda ishlash uchun bu til muhim talab hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Graddol. The Future of English? The British Council 1997. – 64 p.
2. D. Crystal. English as a global language. United States of America by Cambridge University Press, New York. 1997. – 229 p.
3. Sharipova, S., and F. Xalimova. "Actual problems of teaching a language in the classroom and their solutions." In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 2024. pp. 133-135.
4. S.Rodgers. Approches and Methods in Language Teaching . United States of America by Cambridge University Press, New York. 2001. – 280 p.
5. J. Jenkins. Global Englishes. Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon. 2015. – 304 p.
6. B. Jabborov, S.S. Sharipova, Sh. Istamova. Contemporary issues in linguistics and literary studies: theoretical paradigms, interdisciplinary approaches, and methodological challenges. Conferences, 2026 – P. 608-611
7. R. Mesthrie. World Englishes. United States of America by Cambridge University Press, New York, 2008.– 350 p.

